

**2021- yil yanvar-iyun oylarida  
SURXONDARYO VILOYATI  
xizmatlar sohasining  
rivojlanishi**

**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Rivojlangan mamlakatlardagi xizmatlar sohasi iqtisodiyotda yetakchi o'rinni tutadi, uning rivojlanish darajasi esa odamlarning farovonligi va hayot sifatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish bugungi kunda yuqori sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan xizmat ko'rsatish sohasining rolini oshirishni nazarda tutadi.

**Jami**

**Aholi jon boshiga**



2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdag'i xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 645,3 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **1 065,4 mlrd. so'mga** oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **119,3 %** ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyun oylarida)

**4 645,3 mlrd.  
so'm**

**119,3 %**

**1 065,4  
mlrd. so'mga**

• Xizmatlar hajmi

• O'sish sur'ati

• Hajmning o'sishi


2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar** iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

### Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslash, trln. so'm



2021- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning iyun oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3,8** trln. so'mga o'sdi va **4,6** trln. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning mos davrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2,9** trln. so'mga kamaygan va **3,6** trln. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning may oyiga nisbatan joriy yilning iyun oyida (diskret oy) xizmatlar hajmi **0,9** trln. so'mga pasaydi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning iyun oyiga nisbatan 2020- yilning may oyida xizmatlar hajmi **0,8** trln. so'mga o'sgan.

**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyun oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>4645,3</b>	<b>119,3</b>
<b>shu jumladan:</b>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	219,7	122,8
Moliyaviy xizmatlar	958,8	128,3
Transport xizmatlari	724,8	121,2
<b>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</b>	<b>677,7</b>	<b>120,0</b>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	133,6	109,5
Savdo xizmatlari	1700,9	107,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	116,4	121,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	193,9	137,6
Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	78,7	177,8
Ijara xizmatlari	137,1	164,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	121,3	125,4
Shaxsiy xizmatlar	125,0	120,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	48,8	113,6
Boshqa xizmatlar	86,3	134,8

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

### Nisbatan past ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **36,6 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari umumi hajmning **39,9 %** ini tashkil etdi.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

2021- yil yanvar-iyun oylarida yuqori o'sish sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**77,8%**), ijara xizmatlari (**64,2 %**), ta'lim sohasidagi xizmatlar (**37,6 %**), boshqa xizmatlar (**34,8 %**), moliyaviy xizmatlar (**28,3 %**), kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari (**25,2 %**), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**21,8 %**) va transport xizmatlarida (**21,2 %**) qayd etildi.


Buning sababi, korxona va tashkilotlar faoliyatini tiklash bilan bir qatorda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish uchun qo'yilgan cheklowlarni yumshatish bilan bog'liq.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi yashash va ovqatlanish xizmatlari (**36,6 %**) sohasida qayd etildi.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taq qoslanishi, % da



**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **130,9 %.**

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar xizmatlarda keskin pasayish kuzatilgan – **70,6 %.**

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'r-satilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

### Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y. yanvar-iyun

2021- y. yanvar-iyun

57,4

60,5

42,6

39,5

Yo'lovchi tashish

Yuk tashish

2021- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **39,5 %** ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **42,6 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **36,6 %** ni tashkil etib, bu esa **1 700,9 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning hajmi **1 428,1 mlrd. so'mga** yoki umumiylajmi hajmning **39,9 %** iga to'g'ri kelgan.

### Savdo xizmatlari

**1 428,1**

Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm

**1 700,9**

**100,5**

O'sish sur'ati, % da

**107,7**

2020- y.  
yanvar-iyun


2021- y.  
yanvar-iyun

2021- yil yanvar-iyun


Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismini, aniqrog'i 36,6 % ini tashkil etdi.

**Savdo xizmatlari tarkibi**  
(2021- yil yanvar-iyun oylarida)



Avtomobillar  
va mototsikllar ulgurji  
va chakana savdosini,  
jumladan, ularni  
ta'mirlash xizmatlarini  
qo'shgan holda



Avtomobillar  
va mototsikllar  
savdosidan  
tashqari chakana  
savdo bo'yicha  
xizmatlar



Ulgurji savdo  
xizmatlari  
(avtomobillar  
va mototsikllar  
savdosidan  
tashqari)

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **83,6 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

### **Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-iyun oylarida)**

2021- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **958,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning hajmi **710,4** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiyligi hajmidagi ulushi **20,6 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **19,8 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **248,4** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **28,3 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning o'sish sur'ati **130,9 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **88,2 %** ni tashkil etdi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **6,3 %** ini tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarning ulushi **5,5 %** oraliq'ida qayd etildi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi**  
*(2021- yil yanvar-iyun oylarida)*

**Sug'urta va nafaqa ta'minoti  
bo'yicha xizmatlardan tashqari  
moliyaviy xizmatlar**

**Yordamchi moliyaviy  
faoliyat**



**Sug'urta bo'yicha xizmatlar**

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **94,3 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarning ulushi **3,5 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **2,2 %**.

**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2021- yilning yanvar-iyun oylarida)

2021- yilning yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **219,7** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2020- yilga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati **120,6** % ni tashkil etgan.


#### Taqqoslash uchun:

2020- yil yanvar-iyun oylarida ushbu xizmat turi hajmi **179,9** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmining **5,0** % iga teng bo'lgan.

O'sish sur'ati esa **107,8** % ni tashkil etgan.

#### O'sish sur'ati

#### Hajmning o'sishi



#### Jami hajmdagi ulushi

#### Xizmatlar hajmi


**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **95,7 %** ni tashkil etdi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

**2020- y.  
yanvar-iyun**



**2021- y.  
yanvar-iyun**



**Telekommunikatsiya xizmatlari**

**Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**

**Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari**

**Noshirlik xizmatlari**

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **95,9 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar




2017-2021- yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan ta'lif va fan sohasini rivojlantirish – uzlusiz **ta'lif tizimini** yanada takomillashtirish, sifatli ta'lif xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

### Ta'lif sohasidagi xizmatlar

2021- yil yanvar-iyun oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **193,9** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi **4,2 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **137,6 %** ni tashkil etdi.



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-iyun oylarida xizmatlar hajmi **136,2** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan shu xizmat turida pasayish **3,9 %** darajasida qayd etilgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

106,1  
mlrd. so'm

2020- y.  
yanvar-iyun

133,6  
mlrd. so'm

2021- y.  
yanvar-iyun

Xizmatlar hajmi

83,4 %

109,5 %

O'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **27,5 mlrd. so'mga** ortdi.

**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi**

**2021- y. yanvar-iyun**

**Yashash bo'yicha  
xizmatlar**

**8,4 %**

**91,6 %**

**Oziq-ovqat va ichimliklar  
bilan ta'minlash bo'yicha  
xizmatlar**

**6,4 %**

**93,6%**

**2020- y. yanvar-iyun**

2021- yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiylajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **91,6 %** bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **93,6 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

**Info**


**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

### Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

78,7  
mlrd. so'm

1,7 %

177,8 %



2021- y.  
yanvar-iyun

Xizmatlar  
hajmi

Xizmatlarning  
jami hajmidagi  
ulushi


O'sish  
sur'ati

2020- y.  
yanvar-iyun

42,1  
mlrd. so'm

1,2 %

100,0 %



**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**

<b>Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyun oylarida)</b>	<b>Hajmi, mlrd. so'm</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>	
		<b>2021- y.</b>	<b>2020- y.</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>4645,3</b>	<b>119,3</b>	<b>102,9</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>1262,8</b>	<b>124,1</b>	<b>104,1</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>Oltinsoy</b>	<b>187,9</b>	<b>116,3</b>	<b>100,5</b>
<b>Angor</b>	<b>208,2</b>	<b>114,6</b>	<b>101,2</b>
<b>Bandixon</b>	<b>106,3</b>	<b>114,7</b>	<b>100,2</b>
<b>Boysun</b>	<b>149,1</b>	<b>117,2</b>	<b>102,3</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>212,7</b>	<b>116,2</b>	<b>101,9</b>
<b>Denov</b>	<b>578,8</b>	<b>124,0</b>	<b>102,7</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>281,3</b>	<b>119,8</b>	<b>102,1</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>290,4</b>	<b>116,3</b>	<b>101,9</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>186,9</b>	<b>115,9</b>	<b>100,1</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>279,2</b>	<b>114,5</b>	<b>100,4</b>
<b>Termiz</b>	<b>207,2</b>	<b>117,1</b>	<b>101,5</b>
<b>Uzun</b>	<b>198,7</b>	<b>115,5</b>	<b>100,8</b>
<b>Sherobod</b>	<b>254,9</b>	<b>117,9</b>	<b>100,7</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>240,9</b>	<b>116,3</b>	<b>101,7</b>


**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

### Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar-iyun oylarida)



2021- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush – **27,1** % (2020- yil yanvar-iyun oylarida – **48,0** %)ni Termiz shahri tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Bandixon tumanida – **2,3** % (2020- yil yanvar-iyun oylarida – **0,6** %) qayd etildi.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

#### Xizmatlar hajmi

1 724,2  
ming so'm



#### Hajmnning o'sishi

368,8  
ming so'mga



#### O'sish sur'ati

2021- yil yanvar -iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 724,2** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **117,0 %** ni tashkil etdi.

#### Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **1 355,4** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **100,6 %** da qayd etildi.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2021- yilning 1- iyul holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

**Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**

**2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari**



**16 710  
birlik**



**2 308  
birlikga**



**116,0 %**

**60,7 %**

**2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi**


**Ularning umumiyligi sonidagi ulushi**

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **60,7 %**, sanoat **16,3 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **13,0 %** ga yetdi. Qurilish sohasi ulushi esa **10,0 %** ga to'g'ri keldi.

**2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **61,2 %** ni, sanoat **15,4 %** ni, qurilish **10,4 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **13,0 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

**2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni **(47,0 %)** egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **10,0 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **4,8 %** ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **1,9 %** ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **2,5 %** ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

### Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi 65,3 % ni tashkil etdi.

### 2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi 54,7 % ga to'g'ri keldi.

